

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz joriy yil 8-may kuni G‘alaba bog‘idagi “Millat fidoyilari” xiyobonida bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi va mehnat fronti qatnashchilarini bayram bilan tabriklab: “Avvalo, sizlarni, siz orqali barcha faxriylarimizni G‘alabaning 80 yilligi bilan tabriklayman. Xalqimiz nomidan barchangizga chuqur minnatdorlik bildiraman. Sizlarning qahramonligingiz tufayli bugungi avlodlar shunday tinchlik-farovonlikda yashayapti. Bu tinchlikning qadriini yoshlarimizga sizlar orqali yetkazishimiz kerak. Hayotingizning o‘zi bizga namuna. Har bir gapingiz juda katta ta’lim, bilim. Ilohim, sog‘lig‘ingiz mustahkam bo‘lib, ko‘p yillar faxrimiz, duogo‘yimiz bo‘lib yuring”, dedi.

Shuningdek, millat fidoyilari tug‘ilgan tumanlarda xotira tadbirlari o‘tkazish, ularning mardligini yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish, qahramonliklari haqida asarlar yozish zarurligi ta’kidlandi. Bu ham aslida tarbiya, yosh avlod kamoli yo‘lidagi yana bir ijobiy qadamdir. Chunki mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta’minot bazasiga aylangan edi.



OSUDA, FAROVON, TO‘KIS HAYOTIMIZGA KO‘Z TEGMASIN

Hamidullo ABDULLAYEV, front orti mehnat faxriysi:

— Bu yorug‘ dunyoda eng aziz ne‘mat — tinchlik. Koshona uyingiz, tuganmas boyligingiz bo‘lsin, ammo tinchlik bo‘lmasa, hech narsa tatimaydi. Hozirgi dorilamon kunlarimizda, tinch zamonda ham qayerlardadir o‘q ovozidan sarosimada yashayotganlar buni juda yaxshi biladi. Yaratganga shukr, bir burda nonni bemalol yeb, osoyishta orom oloyapmiz. Shu kunlarni ko‘rish uchun millionlab odam jang maydonlariga kirdi, front ortida g‘alabaga hissa qo‘shdi. Ayollar, qariyalar ham qarab turmadi, jon-jahdi bilan yorug‘ kunlar uchun kurashdi. Shuning uchun ham bu qahramonlik, fidoyilik, farzandlik burchiga sodiqlik 80-yildirki, yuksak qadrlanib kelyapti.

“Prezidentimizning bayram munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigini quvonch ko‘z yoshi bilan tingladim. Chindan ham mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta’minot bazasiga aylangan. Jang maydonlariga qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar uzluksiz yetkazib berilgan. Jafokash odatlarimiz o‘zi yemay-ichmay, kiymay, urush qatnashchilarini o‘yladi.

Urush keltirgan musibetni hamma teng bo‘lishdi. Xalq bir yoqadan bosh chiqardi, bir-biriga dalda bo‘ldi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari “Qahramon otobobolarimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida ko‘rsatgan sabot va matonati biz uchun hamisha ibrat maktabi, kuch va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi”, dedi. Mana shuning o‘zi insonni e‘zozlash, mehnatini qadrlashning oliy ko‘rinishi.

Xudoga shukr, biz vatanga sodiqlikni yuqori baholaydigan, e‘tiborsiz qoldirmaydigan yurtida yashaymiz. “Bugungi tinch, ozod va erkin hayot uchun o‘zingiz aziz jonini ham ayamasdan kurashgan fidoyi insonlarning oldida doimo qarzdormiz”, degan gap insonga qanchalar ko‘tarinki ruh berishini so‘z bilan bayon etish qiyin.

Namangan viloyati



“G‘alabaning 80 yilligi” esdalik medalini ko‘zimga surtib, ko‘ksimga taqib oldim. Nevara-chevaralar chug‘urlab, “Nimaga bunday qilyapsiz?” deydi. Bu eng bebaho siylov ekanini tushuntirib, urush hikoyalardan aytib beraman ularga. Nafaqat ularga, juda ko‘p maktablarga, yoshlar davralariga borganimizda bugungi kunlarning qadriga yetish kerakligini aytamiz. Takror aytaman: tinchlik — eng ulug‘ ne‘mat. Shuning uchun tinchlikni saqlab turganlar, tinchlik uchun kurashganlar qahramon bo‘ladi. Urush yillaridagina emas, hozir ham shunday qahramonlik qilayotganlar bor. Chunki eshitib, bilib turibmiz: ko‘p joylarda urush o‘chog‘i ochilgan. Yosh bolalar o‘ynab-kulib bog‘chasiga, maktabga bora olmayapti. Pana-pastqamlarda berkinib o‘tirishga, o‘zini ehtiyot qilishga majbur bo‘lyapti. Eng yomoni — shu. Mana, nimaga biz shukrona aytishimiz kerak!

Ana shunday murakkab zamonda yurtimiz tinchligi uchun kecha-kunduz xizmat qilayotganlar bisyor. Bugungi bayram ularni ham qadrlashga undaydi. Farzandlarimiz ishga, o‘qishga borib, oilasi bag‘riga eson-omon qaytib kelyapti. Hamma sharoit muhayyo. Bozorlarimiz to‘kin-sochin. Istagan narsangiz topiladi. Takror-takror shukrona aytish uchun yana qanday sharoit kerak odamzodga? Mardona jang qilib, begona yurtlarda qolib ketganlar taqdiri ibrat emasmi? Nom-nishonsiz yo‘q bo‘lib ketganlar qismati-chi?

Yangi O‘zbekistondagi tinch, farovon, to‘kin hayotga hech qachon ko‘z tegmasin! Hech qachon ahilligimiz, qadriyatlarimizdan ayrilmaylik. Xotirjamligimiz uchun kunu tun mehnat qilayotganlar, chegaralarda bedor turganlarni Yaratganning o‘zi asrasin!

MEHR VA G‘AMXO‘RLIKNI HIS ETIB YASHAYAPMAN



Usmonjon ota RAHIMOV, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi:

— Hamisha Prezidentimizning mehri, g‘amxo‘rligini his qilib yashayapman.

Bu — biz, keksalar uchun eng katta baxt. Ayniqsa, keyingi yillarda faxriylarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor, g‘amxo‘rlikning adog‘iga yetolmayman. Har kuni ostonaga hatlab kelayotgan yaxshilar mehr-muhabbati, saxovatidan bahra olaman, Yaratganga shu kunlarga yetkazgani uchun shukrona aytaman.

Urush ko‘rgan va janglarda qatnashgan avlod sifatida tinchlik bebaho ne‘mat ekanini yaxshi anglayman. Vatan himoyasi uchun kurashish har bir inson uchun farzdor. Tinch, osuda hayot kechirishning o‘zi eng ulug‘ ne‘mat. Shunday ekan, bugungi yoshlar tinchlikni qadrlashi, mustaqillikni yanada mustahkamlash yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishi lozim.

Farg‘ona viloyati

YUKSAK E‘TIBORDAN MINNATDORMAN

Rashida aya ESHQULOVA, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi:

— Har yili Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan xonadonimiz gavjum bo‘ladi. Bu yilgi bayram o‘zgacha shukuhda o‘tdi. Viloyatimiz hokimi holimizdan xabar olib, Prezidentimiz tabrigini yetkazdi, 10 ming dollar miqdoridagi bayram sovg‘asini topshirdi. Juda ham xursand bo‘ldim.

Urush vaqtidagi qiyinchiliklarni eslash men uchun doim og‘ir. Asli

Boshqirdistonning Sterlitamak shaharchasida tug‘ilganman. Ayni yoshlik yillarim olovli Ikkinchi jahon urushi davriga to‘g‘ri keldi. Moskvada harbiy hamshiralik kursida tayyorgarlikdan o‘tib, gosptaldal ish boshlaganman. 1943-yili men ishlayotgan gosptaldal dala gosptaldal aylantirilib, front chizig‘iga ko‘chirildi. Urush davrida yarador askarlarni gosptaldalga yetkazish ishlarida ishtirok etdim. Har kuni o‘lim bilan ro‘baro‘ kelardik. Jang maydonlaridan yarador askarlarni olib



BIZ KO‘RGAN OG‘IR KUNLARNI HECH BIR AVLODIMIZ KO‘RMASIN

Xolbek RAVSHANOV, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi:

— Baxtli insonman. Olloh umrimni uzun qilgan ekan, urushdan omon kelib, farzandlar o‘stirib, ularning kamolini, davlatimizning mustaqilligini, yurtimiz obodligini, elimiz farovonligini ko‘rib, tinch va osuda kunlarda yashayotirman. Keksalikda bundan ortiq baxt bormi! Tuman rahbarlari, hamqishloqlarim, shifokorlar hol-ahvol so‘rab kelib turadi. Kecha viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Ulug‘bek Mustafoyev uyimizga kelib, Prezidentimizning tabrigi va sovg‘alarini topshirdi. Quvonchdan ko‘zimga yosh keldi. Mana shunday yurtparvar, xalqparvar Prezidentimiz borligi, tinch, obod va rivojlanayotgan vatanda yashayotganimiz — eng katta baxtimiz.

1943-yili harbiy xizmatga chaqirilganimda 18 yoshli navqiron yigit edim. Ukrainaning Xarkov shahrida qisqa muddatli jangovar tayyorgarlikdan so‘ng



Belarus frontidagi qo‘shin tarkibida jangga kirdim. O‘sha yerda ilk bor “urush” deb ataluvchi mash‘um qabohatning butun dahshatiga duch keldim.

Belarus tuprog‘idan boshlab, har daqiqa o‘lim bilan yuzlashib yarim Yevropani bosib o‘tdik. Atrofimda hali hayotdagi birov

“Ozod yurtda, yaqinlar bilan sog‘omon yashash biz uchun orzu edi. Xudoga shukr, niyatimizga yetdik. Endi kelajak avlod ham bugun nafas olayotgan erkinlik havosi abadiy bo‘lishi uchun hissa qo‘shishi kerak. Bu yurtning tuprog‘i uchun to‘kilgan qonlar, erkinlik uchun berilgan jonlar xotirasi abadiy bo‘lishi shart.

HAMON QULOG‘IMGA JANGGOHDAGI FARYODLAR CHALINGANDAY BO‘LADI

Uskan ota XADJIMANOV, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi:

— Odam omon bo‘lsa, boshidan ko‘p narsa o‘tar ekan. Bejiz “insonning boshi toshdan”, deyilmagan. Urush yoshni ham, qarini ham ayamadi, domiga tortib ketdi. Umrimning yarmidan ko‘pi urush va uning oqibatlari bilan kurashish orasida o‘tdi.

Hech kim bu dunyoga urush qilaman, jangga kiraman deb kelmaydi. Ammo hayot shunday ekan — biz ko‘rgan kunlarning zahmati bugunning hikmatiga arzimaydi. Tinchlik eng ulug‘ ne‘mat ekanini har kuni teran his qilaman.

Yaqinlarimni, jigarlarimni ortimda qoldirib, janggoh sari yo‘l olganimda boshimga ne kunlar tushishini bilmasdim. Qishlog‘imizdan men bilan bir safda jo‘nagan yigitlarning ko‘pi bugun o‘zga yurt tuprog‘ida yotibdi.

Hanuz qulog‘imga janggohdagi faryodlar chalinganday bo‘ladi. Urush maydonlarida yurgan paytimda xayolimdian tug‘ilib o‘sgan yerim, vatan sog‘inchi o‘tardi. Biz bu maydonga vatan uchun jangga kirdik.

Sirdaryo viloyati



kurashgan jasorat egalari hozirgi avlodga ham ibratdir.

Umr o‘tib, yoshga yosh qo‘shiladi. Jarohat o‘rni bitadi, qiyinchilik unutiladi. Urushdagi voqealar esa qalb va xotiraga shu qadar o‘rmashganki, esdan chiqarishga urinish befoydal. Shunday quvonchli kunlarda bunday baxtga erishish oson bo‘lmaganini yanada teran anglaymiz.

Shuning uchun bugungi tinch va osuda hayotning qadriga yetishimiz kerak. O‘tmishning sabog‘i bugunga shukr qilishga undaydi. Yurtimizdagi islohotlarni ko‘rib, mamnun bo‘laman. Ayniqsa, inson qadri va biz kabi nuroniyarga yuksak e‘tibor uchun Prezidentimizdan minnatdormiz. Vatanimiz taraqqiyotiga ko‘z tegmasin!

Navoiy viloyati

davom ettirib, urush asoratlarini tugatishda ishtirok etdim.

1948-yilda harbiy xizmatni tugatib, uyimga — Baxmal tumanidagi Beklar qishlog‘iga qaytib, jamoa xo‘jaligida ishlay boshladim. Uylandim. Turmush o‘rtog‘im bilan 5 o‘g‘il, 4 qizni voyaga yetkazdik. 1954-yilda Zomin tumanidagi Yetikechuv qishlog‘iga ko‘chib o‘tdik. Bu qishloqqa ko‘chishimning asosiy sababi Zomin o‘rmon xo‘jaligiga ishga o‘tishim edi. O‘n yil shu xo‘jalikda, so‘ng Zomin xalq parkida ishladim. Urushda olgan orden va medallarim qatoriga tinch mehnat davrida berilgan davlat mukofotlari qo‘shildi. Shu yerdan pensiyaga chiqdim.

Darhaqiqat, tinchlik, osoyishtalik — bebaho ne‘mat. Uni asrashga har birimiz mas‘ulmiz. Buning uchun, avvalo, dorilamon kunlarning qadriga yetish kerak. Yurtimizning tinchligi, dasturxonimiz to‘kinligi bardavom bo‘lsin, biz ko‘rgan og‘ir kunlarni hech bir avlodimiz ko‘rmasin.

Jizzax viloyati

XALQ JASORATIGA YUKSAK EHTIROM



Naim OBLOMURODOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Yaqin vaqtlarga qadar 1941-yilda O‘zbekiston aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda qatnashgan, deb hisoblanardi. Davlatimiz rahbarining 9-may — Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g‘alabani 80 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigida qayd etilishicha, o‘sha og‘ir yillarda qariyb 2 million o‘zbekistonlik jangchi frontga safarbar etilgan. Ularning 540 mingga yaqini halok bo‘lgan, 158 ming nafar bedarak yo‘qolgan, 60 mingdan ko‘prog‘i esa nogiron bo‘lib qaytgan.

Shu faktlarning o‘ziyoq bu g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ana shu qirg‘inbarot ushbu xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hamon unutilib bo‘lmaydi.

Yangi O‘zbekistonda jasorati, mardona mehnati, metin irodasi va insoniyligi bilan bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolib, dunyoda tinchlik o‘rnatilishiga hissa qo‘shgan yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish qadriyat hisoblanadi. Poytaxtimizdagi G‘alaba bog‘i Ikkinchi jahon urushi maydonlarida hamda mashhaqqatli mehnat frontida mardlik va jasorat ko‘rsatgan barcha yurtdoshlarimizga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatish, nomlarini abadiylashtirish, o‘zbek xalqining buyuk g‘alabaga qo‘shgan ulkan hissasini keng miqyosda namoyon etish hamda yosh avlodni vatandarparvarlik ruhida tarbiyalash, urush asoratlarini hech qachon unutmaslikka chorlov maqsadida tashkil etildi.

Darhaqiqat, Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilariga e‘tibor keyingi yillarda yuksak darajada oshgani e‘tirofqa loyiq. Ularning shifoxonalarda davolanishi, sihatgohlarda dam olishi, haj ibodatlariga borishi uchun katta imtiyozlar berilayotir.

Ayniqsa, davlatimiz rahbari tashabbusi va taklifi asosida tayyorlangan va nashr etilgan “O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi” va “O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” turkum kitob-albomlari ahamiyatli bo‘ldi. Ularda O‘zbekistondagi va xorijdagi arxivlar, muzeylar fondlarida, urush qatnashchilari oilalarida saqlanayotgan noyob hujjatlar, suratlar e‘lon qilindi. Shuningdek, urushda qatnashgan ota-bobolarimiz nomini abadiylashtirish, ular ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratni doimo yodda saqlash hamda janglarda qahramonliklari uchun unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan yurtdoshlarimiz to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi www.warheroes.uz sayti yaratildi.

O‘zbekistonning g‘alabaga qo‘shgan hisssasi hali to‘liq o‘rganilgan emas. Mazkur davrni tizimli o‘rganish va tadqiq etish dolzarb masala bo‘lib turibdi. Chunki tarix o‘zining ma‘naviy-ma‘rifiy vazifasiga ko‘ra, insonda qadriyatlar tizimi shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bu boradagi ishlar davlat televideniyesi va radiosi, jumladan, “O‘zbekiston tarixi” va “Madaniyat va ma‘rifat” telekanallari, shon-sharaf.uz sayti orqali olim va mutaxassislarimiz sa‘y-harakatlari bilan amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonliklarning front va front orqasidagi jasoratlarini Ikkinchi jahon urushining g‘olibona yakunlanishida katta hissa bo‘lib qo‘shildi. O‘sha olovli yillarda mamlakatimizda yetti yoshdan yetimish yoshgacha — butun xalqimiz “Hamma narsa — front uchun, hamma narsa — g‘alaba uchun” deb yashadi, orom va halovatlardan voz kechib, tinimsiz og‘ir mehnat qildi, yurtimiz frontning mustahkam ta‘minot bazasiga aylandi.

Urushning dastlabki kunlaridan front hududlaridan minglab aholi, sanoat korxonalari, o‘quv yurtlari, ilmiy muassasalar va boshqa moddiy boyliklarni mamlakat ichkarisiga

ko‘chirish boshlandi. Ommaviy safarbarlik va xo‘jalik harbiy izga burilishiga qaramay, o‘sha yillarda respublikamizda 280 ta yangi korxona ishga tushirilib, aksariyati bir oyda, uzog‘i bilan 45 kunda mahsulot bera boshladi. Natijada 1945-yilga kelib, respublikada sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli 2 barobar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4, ko‘mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 barobar ko‘paydi.

Mahalliy va evakuatsiya qilingan korxonalar bazasida harbiy mashinasozlik rivojlanib, 1943-yilda bu soha 4 karra o‘tdi. Kichik va o‘rta gidrostansiyalar qurilishi evakuatsiya qilingan korxonalarning uzluksiz ishlashini ta‘minlab berdi.

1941-yil 26-iyundan boshlab mamlakatda ishchi va xizmatchilarga ishdan tashqari vaqtda majburiy mehnat qilish, katta yoshdagilar uchun haftada 6 kunlik, kuniga 11 soatlik ish rejimi joriy etilib, ta‘tillar bekor qilindi. Idora xizmatchilari, uy bekalar va o‘quvchilar ham ishlab chiqarishga jalb etildi. Agar 1940-yilda sanoat korxonalari ishchilari orasida xotin-qizlar salmog‘i 34 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 1942-yilda bu ko‘rsatkich 63,5 foizga yetdi.

Urushning dastlabki paytlarda respublikadagi 1700 ga yaqin xotin-qiz ko‘mir konlariga, 20 mingga yaqin toshkentlik xotin-qiz esa sanoat korxonalari va qurilishlarga ishga yo‘l oldi. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlari, fabrika, zavod ta‘limi maktablarining faoliyati urush davri talablariga mos kadrlar tayyorlashga yo‘naltirildi.

G‘alabani ta‘minlashda O‘zbekistonda urush yillarida ishlab chiqarilgan qurol-aslahalar alohida rol o‘ynadi. Sanoatning asosiy qismi harbiy qurol ishlab chiqarishga yo‘naltirilib, ular jang maydoniga uzluksiz yuborib turildi. Natijada O‘zbekiston urush yillarida front uchun 2100 ta samolyot, 17 ming 342 ta aviamotor, 2 million 318 mingta aviabomba, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 millionta mina va 560 mingta snaryad, 1 millionta granata, 330 mingta partizan, harbiy ehtiyot uchun 100 ming kilometrdan ortiq turli simlar, minani aniqlab beruvchi 4,5 mingta qurilmalar, 2 million 861 ming juft etik va 59 ming boshdan ziyod ot va boshqa harbiy anjomlar yetkazib berdi. Mamlakatimizda ko‘chirilgan korxonalardan tashqari 280 ta yangi sanoat korxonasi barpo etildi. Yalpi ishlab chiqarishda sanoatning ulushi 1938-yildagi 69,4 foizdan 1945-yilda 80 foizga yetdi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi o‘rtasidagi muvozanatning keskin o‘zgarishi iqtisodiy resurslarning harbiy sanoatga ko‘plab ajratilishi bilan bog‘liq edi.

Urushda g‘alabaga erishish ko‘p jihatdan



transportga bog‘liq. 1943-yil 25-yanvarda “Toshkent temir yo‘li ishi to‘g‘risida” maxsus qoray qabul qilindi. Temir yo‘li harbiy holatga o‘tkazildi, unda ishlovchilar urushga safarbar etilgan deb hisoblandi. Ular harbiy xizmatchilar kabi qattiq intizomga rioya etishga majbur edi. Poyezdlar harakatida qo‘shinlar va harbiy yuklarni birinchi navbatda o‘tkazib yuborishni ko‘zda tutuvchi harbiy grafik joriy etildi. Toshkentlik temiryo‘lchilar ko‘chirib keltirilayotgan korxonalarning asbob-uskunalarini va millionlab kishilarni G‘arbdan Sharqqa, jangovar texnika va qurol-yarog‘larni Sharqdan G‘arbga o‘z vaqtida to‘xtovsiz o‘tkazib turishdek ulkan vazifani sharafl bilan bajardi.

O‘sha yillarda ozod bo‘lgan hududlar uchun yuzlab traktor, avtomashina, kombayn, seayalkalar, agronom va haydovchilar bilan jo‘natildi. Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari 50 ming bosh qo‘y va 190 ming bosh qoramol yubordi. 1944-yili yuz mingta kitob sovg‘a qilindi.

Qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari ham urush yillarida haqiqiy jasorat namunalarini ko‘rsatdi. O‘sha yillarda davlatga 4 million 148 ming tonna paxta, 82 million pud g‘alla, 54 ming 677 tonna pilla, 195 ming tonna sholi, 57 ming 442



tonna meva, 36 ming tonna quritilgan meva, 159 ming 300 tonna go‘sh, 22 ming 300 tonna jun va boshqa mahsulotlar yetkazib berildi.

1944-yilning 20-yanvaridan 17-martigacha o‘zbekistonliklar ozod qilingan tumanlar uchun o‘z shaxsiy pullari evaziga 122 ming 147 bosh chorva moli sotib olib, beg‘araz yordam tariqasida yubordi.

Geologik qidiruv ishlari natijasida ko‘plab qora va rangli metall konlari ochildi. Urush yillaridagiq Langar, Ingichka, Qo‘ytosh, Qoratopa, Olmaliq rangli metall konlari, Oqtosh boksit koni o‘zlashtirildi. Ulardan qazib olingan volfram, molibden, mis, alyumin va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq korxonalar qurildi. Kimyo, qurilish materiallari, to‘qimachilik va poyabzal, oziq-ovqat, mahalliy sanoat tarmoqlari rivojlantirildi. Birgina 1943-yilda 12 ta yog‘ zavodi, 3 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodi qurilib, ishga tushirildi.

Urush yillarida minglab o‘zbekistonliklar dushmanga qarshi janglarda faol ishtirok



CHINAKAM MARDLIK VA QAHRAMONLIK SOLNOMASI

Prezidentimizning “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabani 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 9-may — Xotira va qadrlash kuni yurtimizda “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida o‘tkazilmoqda.



Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo‘mitasi raisi

Ushbu sana munosabati bilan kuni kecha Prezidentimiz G‘alaba bog‘iga tashrif buyurib, xotira marosimida ishtirok etdi. So‘nggi yillarda shakllangan an‘anga muvofiq, davlatimiz rahbari “Matonat madhiyasi” yodgorligi poyiga gulchambar qo‘ydi.

Mamlakatimizda 9-may — Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga hissa qo‘shgan urush va mehnat faxriylariga hamda vatan ravnaqi, taraqqiyoti va himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e‘tibor va chuqur ehtirom ko‘rsatish ezigu qadriyatga aylandi. Shuningdek, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug‘lash doimiy e‘tibordir.

Xalqimizning Ikkinchi jahon urushida ko‘rsatgan jasorati insoniyat yodida abadiy qoldi. Hujjatlarning dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o‘sha paytda 6 million 800 minglik xalqimizning qariyb 2 millioni ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo‘lgan, 158 ming bedarak yo‘qolgan, 50 mingdan ortig‘i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo‘lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo‘lib qaytgan.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta‘minot bazasiga aylangan, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, kiyim va oziq-ovqat yetkazib bergan. G‘oyat og‘ir sharoitga qaramay, xalqimiz urush hududlaridan ko‘chirib kelingan 1 million 500 mingga yaqin insonni, jumladan, ota-onasidan judo bo‘lgan 250 ming yetim bolani o‘z bag‘riga olib, mehro ko‘rsatgan.

Prezidentimiz ota-bobolarimizning ushbu jasorati va fidoyiligi xususida to‘xtalar ekan, **“Bular chinakam mardlik va qahramonlik solnomasidir. Bunday murakkab va shonli g‘alabaga munosib hissa qo‘shgan matonatli xalqimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi. Bu qahramonliklarni hech qachon unutmasligimiz, yoshlarimizga yetkazishimiz kerak. Ayniqsa, hozirgi tahlilakali zamonda buning ahamiyati nihoyatda katta. Hammamiz vatan himoyasiga har kuni tayyor bo‘lishimiz kerak”**, deb ta‘kidladi.

Haqiqatan, ajdodlarimizning bunday hayot yo‘li har birimiz uchun ulkan ibratdir. Shu bois, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishda tom ma‘noda yangi davr boshlandi. Jahon arxivlari o‘rganilib, bu borada yangi topilgan ma‘lumotlar xalqimizga taqdim etilmoqda. Ilmiy izlanishlar natijasida orden va medallar bilan mukofotlangan O‘zbekiston vakillarining soniga ham oydinlik kiritildi. Ilgari bu

“O‘sha olovli yillarda O‘zbekistondagi 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan butun xalq, jumladan, ayol-qizlar ham “Hamma narsa — front uchun, hamma narsa — g‘alaba uchun!” deb yashadi. Orom va halovatdan voz kechib, tinimsiz og‘ir mehnat qildi. Mamlakatimiz frontning mustahkam ta‘minot bazasiga aylandi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



4

Tahlil

2025-yil 10-may, 95-son

JARAYON

YANGI O‘ZBEKISTON

SUN'YI

INTELLEKTdan

qanday maqsadda foydalansak,

NATIJASI HAM SHUNGA YARASHA BO‘LADI

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda yangi bir chellenj, trendga ko‘zim tushdi. Hamyurtlarimiz sun‘iy intellekt yordamida rasmlar animesini yaratib, jamoatchilikka ulasha boshladi. Internet ilk ommalashayotgan paytda ham ko‘pchilik uni ko‘ngil yozish uchun ishlatardi. Bugun esa internetsiz hayotimizni tasavvur etolmaymiz. Ilgari biror narsani qidirsak yoki tushunmay qolsak, internetga yozib ko‘r, deya maslahat berishardi. Hozir esa ChatGPTdan so‘ra deyishyapti.

Kundalik turmushimizga yashin tezlighida kirib, ommalashib borayotgan sun‘iy intellektga ham jamoatchilik orasida bir paytlar internetga bo‘lgani kabi turli qarashlar mavjud. Kimdir uning ijobiy jihatlari, qulayligini ta’rif etsa, kimdir ishisizlikni oshirishi, insonlarni dangasa qilib, fikrlash qobiliyatini susaytirishi kabi salbiy jihatlari sanay boshlaydi. Sun‘iy intellektga ustozlarimizning global tarmoqqa bergan bir izohi mos keladi, nazarimda: “Sun‘iy intellekt — bu bir vosita, u yaxshi ham, yomon ham bo‘lmaydi. Siz undan qanday maqsadda foydalansangiz, o‘sha maqsadga tezroq va osonroq yetishingizga yordam beradi”, degan edi.

Masalan, sun‘iy intellekt dan diplom ishi, dissertatsiya yozdirish yoki ko‘ngil yozish maqsadida ham foydalanish mumkin. Lekin uning foydasi, qo‘lalanish ko‘lami bundan ancha keng. Atoqli adiblarimizdan biri: “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorisiga sarf qilish kerak emas”, degan.

Adibimizning fikridan kelib chiqib ayt sak, sun‘iy intellekt kuchini ham “o‘tin yorish”ga sarflab bo‘lmaydi. Uning iqtisodiy ahamiyati, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivoji, davlat va jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligiga qo‘shadigan hisssasi juda yuqori.

BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) tadqiqotlariga ko‘ra, yaqin yillarda sun‘iy intellekt bozorining o‘sishi 4,8 trillion dollarga teng bo‘ladi. Bu Germaniya iqtisodiyoti bilan teng. 2023-yilda sun‘iy intellekt global texnologiya bozorining 7 foizini tashkil etayotgan bo‘lsa, 2033-yilga borib, 29 foizini egallaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bu borada ancha ortda qolgan. Ularning uchdan biridan kamrog‘ida sun‘iy intellektni rivojlantirish strategiyasi mavjud. Dunyo bo‘yicha 118 ta davlatda sun‘iy intellektni boshqarish, rivojlantirishga ixtisoslashgan tuzilmalar yo‘q.

Shu bois, tashkilot rivojlanayotgan davlatlar sun‘iy intellekt infratuzilmasi, ma‘lumotlari va ko‘nikmasini rivojlantirish uchun xorijiy sarmoyalardan faol foydalanishi zarurligini tavsiya etadi.

Ushbu faktlar O‘zbekistonda sun‘iy intellektni rivojlantirish uchun qanday ishlar

qilinmoqda, degan haqli savolni o‘rtaga tashlaydi. Dunyoda sun‘iy intellekt, innovatsiya, raqamli va “yashil” texnologiyalar, kreativ xizmatlar orqali “katta sakrash” bo‘layotganini ta’kidlagan Prezidentimiz bu yo‘nalishga ham alohida e’tibor bilan qaramoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 14-oktabrdagi qarori bilan Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Strategiyadagi loyihalarni amalga oshirish orqali 2030-yilgacha O‘zbekistonni raqamli iqtisodiyot va sun‘iy intellekt xabiga, mintaqada sohadagi yetakchi davlatga aylantirish mo‘ljallanmoqda. Albatta, bu xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikda bo‘ladi. Shu bois, Prezidentimiz 2025-yil aprel oyida mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan tarixiy muloqot maydonlari — “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti hamda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasidagi nutqlarida ishtirokchilarga sun‘iy intellektni taraqqiy ettirishning turli yo‘nalishlarda o‘zaro hamkorlik qilish taklifini bildirdi. Ayni paytda bu yo‘nalishda Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda katta loyihalarni amalga oshirmoqda.

Raqamli texnologiyalardan sun‘iy intellektgacha

O‘zbekiston sun‘iy intellektni rivojlantirish strategiyasiga ega kam sonli rivojlanayotgan davlatlar sirasiga kiradi, bu borada dadil odimlayotgani bilan ham ajralib turadi. Strategiyada sohani taraqqiy ettirishning aniq maqsadi va “yo‘l xaritasi” belgilangan. Hujjatda sun‘iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish hamda sun‘iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O‘zbekiston birinchi 50 o‘rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish kabi ulkan maqsadlar qo‘yilgan.

Albatta, bunga o‘z-o‘zidan erishilmaydi. Buning uchun mamlakatda kerakli infratuzilmalar yaratilgan bo‘lishi zarur. Jumladan, sun‘iy intellektning keng qamrovli rivojlanishi sohalar qanchalik raqamlashtirilganiga bog‘liq. Bu jarayonlar bir-birini to‘ldiradi va uzviy ravishda taraqqiy etib boradi. Bu yo‘lda my.gov.uzda sun‘iy intellekt asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, o‘zbek tilida mavjud katta hajmli ma‘lumotlarni karrasiga ko‘paytirish, kuchli dasturiy

ta‘minot va yirik hajmli ma‘lumotlar saqlovchi serverlarni tayyorlash talab etiladi. Joriy yil 1-sentabrgha loyihalar va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni zarur ma‘lumotlar bilan ta‘minlash maqsadida qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq barcha axborot xavfsizligi choralarni ko‘rgan holda “katta ma‘lumotlar” bazasini yaratish mo‘ljallanmoqda. 2026-yil 1-maygacha esa sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish loyihalari doirasida ma‘lumotlarni qayta ishlash



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

uchun mo‘ljallangan hisoblash quvvatlari ishga tushiriladi. Bu amaliyotlar bevosita sun‘iy intellektning taraqqiy etishi, yanada ommalashishiga zamin hozirlaydi. Zotan, sun‘iy intellektning asosi, sifat darajasi uning naqadar ko‘p raqamlashtirilgan ma‘lumotlarga ega ekani bilan baholalanadi.

Aslini olganda elektron shaklda ko‘rsatiladigan xizmatlar kun sayin ko‘payayotgan ham raqamlashtirish jarayoni samarasi hisoblanadi. Xususan, ayni paytda bank-moliya sohasi, soliq va bojxona tarmoqlari to‘liq raqamlashtirib bo‘lingan. Quvonarlisi, raqamlashtirish bilan birga tarmoqlarda sun‘iy intellekt dan foydalanish ham amaliyotga tatbiq etilyapti. Masalan, bank tizimi fuqarolar bilan muloqot, shaxsning kredit tarixini aniqlash xizmatlarida sun‘iy intellekt dan foydalanmoqda. Davlatimiz rahbarining shu yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma‘muriyatchiligini yanada

takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida tarmoqqa sun‘iy intellektni joriy etish bo‘yicha vazifalar belgilangan.

Tarmoqqa zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, albatta, intellektual salohiyati, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan yaxshigina xabardor kadrlarga ehtiyojni oshiradi. Mamlakatimizda bu borada ham tegishli amaliy choralar ko‘rilmoqda. Yo‘nalishga

taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Bir so‘z bilan aytganda, ular bilan hamkorlik bizga katta tajriba maydoni vazifasini o‘taydi.

BAA vakillari ham O‘zbekistonda tarmoqqa qaratilgan alohida e’tiborni e’tirof etmoqda. Xususan, “1 million dasturchi” loyihasiga alohida urg‘u berilib, O‘zbekistonda 2025-yilda 30 million dollarlik IT xizmatlar import qilish rejalashtirilayotgani bildirildi. Shu yo‘nalishdagi o‘zbek yoshlarini masofadan turib arab kompaniyalariga ishga taklif qilish nazarda tutildi.

Shuningdek, O‘zbekistonda “1 million sun‘iy intellekt foydalanuvchisi” loyihasini amalga oshirishga investitsiya kiritish orqali hamkorlik qilishga ishtioq bildirildi. Ayni paytda bu bo‘yicha maxsus platforma yaratilmoqda. Bu platforma orqali maktab yoshidagi bolalardan tortib, katta yoshli insonlar ham sun‘iy intellekt dan samarali foydalanish bo‘yicha kerakli ma‘lumotlarga ega bo‘lishi mumkin.

Muhammad bin Zoid nomidagi Sun‘iy intellekt universiteti bilan hamkorlikda ilmiy xodimlarni tayyorlash, davlat boshqaruvidagi kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha ham o‘zaro hamkorlik qilinadi.

Yurtimiz oliy ta’lim muassasalarida sun‘iy intellekt mutaxassislarini tayyorlovchi yo‘nalishlar ochilgan. Jumladan, 13 ta oliy ta’lim muassasasida 2024-2025-o‘quv yili uchun 1050 ta kvota ajratilgan. O‘quv muassasalarida sun‘iy intellekt laboratoriyalari tashkil etilmoqda.

Hozir zamonaviy texnologiyalarni samarali boshqara olish kadrlar qimmatini oshiradi. Shu bois, “1 million sun‘iy intellekt foydalanuvchisi” loyihasi hamda zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlash borasidagi ishlar o‘zbek yoshlarining raqobatbardoshligini oshiruvchi ahamiyatli amallardan biri. Birlashgan Arab Amirliklari bilan bu yo‘ldagi hamkorlik esa reja va maqsadlarga tezroq yetishishimizga zamin yaratadi.

Poygada bizning yoshlar ham munosib qatnashmoqda

Dunyoda sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan dasturlarning bir-biridan mukammalrog‘ini hayotga tatbiq etish bo‘yicha o‘ziga xos poyga ketmoqda. Masalan, amerikaliklar barcha savollarga javob beruvchi ChatGPT chat botini ishlab chiqdi. 2025-yil fevral oyida uning bir oz takomillashgan variantini xitoyliklar DeepSeek nomi bilan jamoatchilikka taqdim etdi. Ilon Mask undan ham ko‘p funksiyali GROK-3 chat

botini sinovlardan o‘tkazyapti. Bir so‘z bilan aytganda, davlatlar va turli tijorat kompaniyalari har kuni yangi sun‘iy intellekt bilan ishlaydigan dasturni IT bozorga chiqarmoqda.

O‘zbekistonda ham xavfsizlik, sog‘liqni saqlash, bank-moliya sohalarida sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan turli dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, dunyoda birinchi bo‘lib Toshkent metropolitenida sun‘iy intellekt yordamida ishlaydigan “MyID Palm” texnologiyasi, ya‘ni kaft orqali to‘lov qilish tizimi joriy etildi. O‘zbek dasturchilari tomonidan ishlab chiqarilgan bu texnologiya ko‘pgina xalqaro tadbirlarda e’tirof etilib, 2025-yil oxirigacha Dubay jamoat transportida qo‘llanilishi rejalashtirilgan.

Sog‘liqni saqlash sohasida sun‘iy intellekt dan, asosan, kasallikka tashxis qo‘yishda foydalaniladi. Masalan, O‘zbekiston tibbiyot tizimida ko‘krak bezi saratoniga tashxis qo‘yishda sun‘iy intellekt imkoniyatlarini qo‘llash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bu amaliyot test sinov tariqasida tajribadan o‘tkazilmoqda. Yangi tizim aniqlik va tezkorlikni yanada oshiradi. Shuningdek, bank-moliya sohasida sun‘iy intellekt yordamida ishlaydigan “My ID”, jamoatchilik xavfsizligi bo‘yicha “UzFace” texnologiyalaridan foydalanilmoqda.

Yurtimizda sun‘iy intellektni rivojlantirishda yoshlar, yosh dasturchi va tadbirkorlarga tayaniyapti. Shunchaki tayanib qolinyotgani yo‘q, balki sun‘iy intellekt, raqamli va “yashil” texnologiyalar, kreativ xizmatlar sohasidagi loyihalar rivojiga qulay sharoitlar yaratib berishga harakat qilinmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rmini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, venchur fondlar mablag‘ining bir qismini imtiyozli ravishda sun‘iy intellekt loyihalariga yo‘naltirish belgilandi.

Albatta, yosh tadbirkor va dasturchilar yaratilgan qulay sharoit, qo‘llab-quvvatlashlarga yangi startup loyihalari, sun‘iy intellekt asosida ishlovchi dasturlari bilan “labbay” deb javob qaytarmoqda. Davlat va jamiyat suynach bo‘lib turganini his qilib, yangi loyihalarini hayotga tatbiq etishda ishonch bilan harakat qilyapti.

Shunday loyihalardan biri sun‘iy intellekt yordamida ingliz tilini o‘rganishga ko‘maklashuvchi “Speaklish.uz” ilovasi. Bugungi kunda bu ilova orqali 30 mingdan ortiq kishi ingliz tilini o‘rganmoqda. Ular orasida chet elliklar ham borligi yanada quvonarli.

Yosh tadbirkor Shahzod Umrzoqov tomonidan asos solingan “Tass Vision” kompaniyasi sun‘iy intellekt yordamida chakana savdoni oshirishga yordam beradi. U ishlab chiqqan dastur 1700 dan ortiq do‘konga o‘rnatilgan. Hozir dunyoning turli davlatlari tadbirkorlari kompaniya xizmatlariga qiziqish bildirmoqda. Ayni paytda MDH, Mo‘g‘uliston, Turkiya, BAAdagi ishbilamonlar bu kompaniya xizmatlaridan foydalanmoqda.

Sanasak, bunday misollarning sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Yurtimizdagi IT-Park sun‘iy intellektga asoslangan bu kabi ko‘plab foydali dasturlarni kunda-kunora ishlab chiqarmoqda. Yuqorida keltirilgan faktlar va mulohazalardan xulosa qilib, O‘zbekistonda sun‘iy intellektning cheksiz kuch-qudrati “o‘tin yorish”ga sarflanmayotganini anglash mumkin. Bu amaliy ishlar esa tez orada dunyo mamlakatlari orasida o‘z o‘lmimiz va so‘zimizga ega bo‘lishimizga zamin yaratadi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton



Ota-bobolarimiz o‘zgalarning haqidan hazar qilgan. Shundan bo‘lsa kerak, qadimda darvozalarga qulf urilmagan. Ko‘chaga chiqqan savdogar do‘kon eshigi zulfina shunchaki cho‘p gistirib qo‘ya qolgan. Prezidentimiz “korruptsiyaga jamiyat tanasidagi saraton sifatida qarash zarur”, deganida ham xalqimizga o‘zligini yana bir bor eslatish, anglatishni maqsad qilgan edi, nazarimda.

Ha, Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining joriy yil 5-mart kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida poraxo‘rlikka aynan shunday ta’rif berildi. Korruptsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta g‘ov, unga qarshi kurashish umummilliy vazifa ekani qayd etildi. Prezidentimiz ushbu tashabbusga butun jamoatchilikni chaqiribgina qolmay,

balki yurtdoshlarimizning faol ishtirokini ta‘minlash tartibini qayta ko‘rib chiqish masalalarini ham o‘rtaga tashladi. Oradan bir yarim oy o‘tib, aniqrog‘i, Prezidentimizning shu yil 21-apreldagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonini o‘qib, qadimgi yunon faylasufi Senekaning bir gapi esimga tushdi. Bu gap menda xushkayfiyat uyg‘otdi. Nimaga? Buni tushuntirish uchun, avvalo, farmon bandlaridagi ba’zi o‘rinlar bilan kengroq tanishtirishga to‘g‘ri keladi.

Farmon bandlari bilan tanishishdan oldin, keling, mohiyatni oydinlashtiradigan ba’zi masalalarga to‘xtalsak. So‘nggi yillarda poraxo‘rlikning oldini olish yuzasidan salmoqli ishlar qilindi. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli huquqiy-me‘yoriy hujjatlar chiqarildi. Parlament palatalarida mas‘ul qo‘mitalar, Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va agentlik tashkil qilindi. Korruptsiyaning omillarini aniqlab, avvalo, ularga qarshi chora-tadbirlar qo‘llash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Masalan, yerni hokim qarori bilan ajratishdan voz kechilib, auktsion tizimiga o‘tkazilgani natijasida mazkur tizim xalqchil bo‘ldi.

“Shaffof qurilish” dasturi amaliyotga ko‘chganidan keyin bu sohada ham ijobiy o‘zgarishlar boshlandi. Bugunga kelib barcha banklar 100 million so‘mgacha maishiy kreditni inson omilisiz, nari borsa, 5 daqiqada onlayn ajratadi. Avval shu ish bilan shug‘ullangan, ehtimol, bundan moliyaviy manfaatdor bo‘lgan ko‘plab bankirlar endi mahalla oralab, odamlarga loyiha, kredit taklif qilib, mijozlarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanmoqda.

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turi to‘liq elektron shaklga o‘tkazilgach, ushbu sohadagi murojaatlar soni 2,5 barobar kamaygan. Oliy ta’limda ham avval test topshirib, to‘plagan baliga ko‘ra keyin OTMni tanlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Yo‘l harakati xavfsizligi inspektori “bodi-kamera”da xizmat o‘tayotgan, elektron tizimni auktsionlar, qog‘ozdagi bayonnomalardan kechilgani kabi choralar tufayli korruptsiya omillari keskin pasaydi.

Qog‘ozbozlikda turli sohalarga oid 300 dan oshiq hujjatdan voz kechilgani, qolganlarining ham katta qismini olishda inson omilisiz dasturlarga o‘tilgani va shu kabi ishlarni sanay ketsak, asosiy mavzudan chalg‘ishimiz turgan gap. Biroq rivojlanish davom etar ekan, korruptsiyaning yangi, zamonaviy ko‘rinishlari,

ildizlari paydo bo‘lish ehtimoli mavjud. Demak, bir joyda to‘xtab qolib bo‘lmaydi.

Ana endi muddaoga ko‘chsak. Xo‘sh, yangi farmon nimasi bilan alohida ahamiyatga ega? Undagi aynan qaysi bandlarga ko‘proq diqqat qaratmoq lozim? U sizning, mening hayotimga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Mazkur farmon, avvalo, korruptsiyaga qarshi keng qamrovli chora-tadbirlarni yangi bosqichga o‘tkazish ko‘rsatmasi bilan boshlanadi. Hukumat, vazirlik va idora rahbarlarga shaxsiy mas’uliyat yuklayapti. Ya’ni endi rahbar qo‘l ostidagilarga loyihani internet orqali yuborib qo‘yib, xo‘jako‘rsin nazorat bilan cheklanmaydi. Kutilgan natija uchun endi rahbarning o‘zi bevosita javobgar. Chunki masalaga bir pog‘ona yuqoriroqdan qaraladi.

Keyingi bandga o‘tishdan oldin bir savol xayolimga keldi: sizningcha, odamlarda markazga intilish hissi nima uchun katta? Chunki markazda qonun yaxshi ishlaydi. Chekka tumanlardagi ko‘pchilikda yetarli darajadagi huquqiy savodxonlik bo‘lmagligi, ular tegishli idoralar bilan bog‘lanishga qiyinalishi mumkin. Farmonda aynan shu jihatga aytoidil e’tibor qaratilgani yaqqol seziladi. Buning uchun mas’ullar zimmasiga maishiy korruptsiyaga barham berish, korruptsiya-

ga murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish bo‘yicha “yo‘l xarita”sini tasdiqlash, ijrosi ustidan nazoratni ta‘minlash vazifasi yuklangan.

Maishiy korruptsiya nima, deysizmi? Bu kommuna to‘lovlar, hujjat olish, allaqanday naxbarga yozilish kabi hayotda uchraydigan ta’magirlik, urib qolish kabilar degani. Esingizda bo‘lsa, “Abdullajon” filmidagi arini o‘ldirib qo‘yg‘an kolxoz raisining ketmoni uchmaydi. Xuddi shunga o‘xshab, endi poraxo‘rlikning ham kichigi bo‘lmaydi — hammasi uchun javobgarlik muqarrar. Demak, odatga aylanib qolgan “choy puli”, “haq berish” kabilar ham ta’qibga olinadi. Natijada chekka hududlarda ham xuddi markazdagiday nazorat o‘rnatiladi.

Korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashishda parlament rolini tubdan oshirish maqsad qilingan. Jumladan, farmon chiqqandan boshlab parlament nafaqat qonun ishlab chiqaruvchi, balki nazorat organiga ham aylanadi. Unda Oliy Majlis qo‘mitalariga qator tavsiyalar bor. Ular orasida e’tiborimni eng ko‘p tortgani endi vazir va hokimlik lavozimiga nomzodlar muayyan tizim yoki hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan birga, korruptsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq rejasini himoya qiladi. Yanayam oddiy

aytganda, poraxo‘rlik illatini barham toptirish endi rahbarlar uchun qat’iy vazifa bo‘ladi.

Farmonda davlat xaridlari, qurilish va investitsiyalarda barqarorlik o‘rnatish, shaffoflikni ta‘minlash kabilar ham ko‘zda tutilgan. Davlat xaridlarida narxlar sun‘iy oshirilganda javobgarlik muqarrarliq ta‘minlanadi. To‘g‘rirog‘i, davlat idorasi va tashkilot rahbarlarining davlat hisobraqamidagi mablag‘ uchun mas’ulligi ortadi, oldi-sotdi faoliyati uchun zarur xarajat qat’iy nazoratga olinadi. Qolaversa, farmonda 1-iyuldan boshlab yirik investitsiya loyihalarining xalqaro standartlar asosida baholanishi, “Shaffof qurilish” tizimi kengaytirilishi kabi dolzarb masalalar hamda pudratchilarning mas’uliyatini ta‘minlash ko‘zda tutilgan.

Navbatdagi bandda markazdan olis hududlarda yashovchi odamlar manfaatiga chuqurroq e’tibor qaratilgan. E’tibor qaratibgina qolmay, zamonaviy va o‘ta qulay yemam taqdim qilingan. Ya’ni bir oy muddatda aholining kundalik hayotida uchraydigan savollarga mobil telefon orqali sodda va qulay shaklda javob olish imkoniyatini beradigan onlayn platformani ishga tushirish vazifasi belgilangan. Demak, tez orada kundalik hayotimizda tug‘iladigan huquqiy savollarga javobni oddiy mobil ilovani ishga tushirish orqali olish mumkin. Xullas, farmonda mamlakatimizda ortga qaytmas tsun olgan islohotlar, jumladan, jamiyatimizda korruptsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini qor toptirishning eng muhim jihatlari to‘la-to‘kis aks etgan.

Darvoqe, Senekani nima uchun esladim? Uning “Qonun taqilqlamgan jinoyatlarni vijdon taqilqlaydi” degan qanotli iborasi bor. To‘g‘ri, iboraning mohiyatli falsafasi. Ammo menimcha, shu ibora endi yangi O‘zbekistonda qo‘llanganida “faqat korruptsiya bundan mustasno!” deya qo‘shimcha qilish to‘g‘rirog‘ bo‘ladi. Holbuki, farmon orqali poraxo‘rlikning o‘ta qattiq ta’qibga olinganig, bu borada ortiq vijdonga havola qilish barham topganiga amin bo‘lish mumkin.

Bayram ALI,
Yozuvchilar uyushmasi a’zosi



2025-yil 10-may, 95-son



yuz.uz_news — yuz

ekotizimini yaxshilash, startup loyihalarni shakllantirish hamda amalga oshirish uchun inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini tashkil qilish orqali loyihalarning sifati va soni oshiriladi.

Yuqori malakali muhandislar va tadqiqotchilarni tayyorlash, sanoatning ilmiy-texnologik yutuqlar asosida rivojlanishini ta'minlash bugunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan. Bu maqsadga erishish uchun OTMlarda ilg'or muhandislik maktablari, tadqiqot va texnologik ishlanmalar markazlari tashkil etish rejalashtirilgan.

Ayni paytda Urganch davlat universiteti huzuridagi yangi va zamonaviy "Ilg'or tadqiqotlar markazi" ilmiy va innovatsion faoliyatni yangi bosqichga ko'tarishda muhim

hamjamiyatiga yuz tutish, o'z bilimimiz va ta'lim tizimimizning xalqaro standartlarga mosligini namoyon etish, bitiruvchilarimiz malakasining xalqaro darajada e'tirof etilishini ta'minlash, demak. Bu orqali ta'lim sifatiga ishonch oshadi, milliy akademik salohiyatimiz keng jahon maydoniga chiqadi, mamlakatimiz ilm-fan sohasida o'z nufuzi va so'zining qiymatini namoyon etadi.

Muhandislik, tibbiyot, iqtisodiyot va agrar sohalar — mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti, oziq-ovqat xavfsizligi, sog'lom jamiyat va sanoat modernizatsiyasi uchun ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu sohalaridagi mutaxassislarimiz endi xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo'lishi shart. Chunki bugun bilim va qobiliyat chegara tanlamaydi

XORAZMDA TA'LIMDAN BANDLIKKA QADAR: YANGI YONDASHUVLAR VA ANIQ MAQSADLAR

Boshlanishi 1-betda

Kasbiy ta'lim tizimi, o'z mohiyatiga ko'ra, real sektorga — sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalariga, qisqasi, mamlakat iqtisodiyotining barcha jabhasiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lishi kerak. Texnikum o'quvchilari nazariy bilimlarga ega bo'lish bilan birga, ishlab chiqarish muhitida pishgan amaliyotchi mutaxassis sifatida shakllanishi shart. Zero, davr talabiga ko'ra, faqat nazariya emas, tajriba ham muhim.

Mamlakatimizdagi keng ko'lamli islohotlar jarayonida ta'lim tizimini mehnat bozori bilan integratsiya qilishga katta e'tibor qaratilayapti. Davlatimiz rahbari tomonidan berilgan topshiriqlar kasbiy ta'lim muassasalarining vazifalarini tubdan qayta ko'rib chiqish, hayot talablariga moslashtirishga undamoqda. Bu jarayonda texnikumlar faqat o'quv markazlari emas, balki kelajak uchun maqsadli shakllantiruvchi ustaxonalarga aylanishi lozim.

Davlatimiz tomonidan kasbiy va oliy ta'limni rivojlantirish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash yo'liga keng imkoniyatlar, qulay sharoitlar hozirlanmoqda. Texnikum va OTMLar infratuzilmasi yangilanmoqda. Dual ta'limni joriy etish uchun qonunchilik asoslari va moliyaviy mexanizmlar shakllantirilmoqda. Korxonalar bilan hamkorlik o'rnatish uchun huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan. Endi esa ushbu imkoniyatlardan umumli foydalanish uchun har bir o'quv muassasasi, har bir rahbar va jamoaning tashabbuskorligi, mas'uliyat bilan yondashuvi talab etiladi. Shundagina ta'lim hayotga bog'lanadi, yoshlar kelajagini shu yurtida qurishiga ishonadi.

Bugun Xorazm viloyatida dual ta'lim tizimi samarali yo'lga qo'yilgan. Yangi o'ziga xos tajribasi bilan ajralib turibdi. Hududdagi hamkor tashkilotlar tomonidan 619 o'quvchi amaliy ta'lim jarayoniga jalb etilib, ularga o'rta 1,5 million so'mdan 3,5 million so'mgacha oylik maosh berilmoqda. Xususan, Tuproqqal'a tumanidagi politexnika texnikumining 98 o'quvchisi "UzAvtoMotors" AJning Xorazm filialida ishlab, har oy 3 million so'mdan 3,5 million so'mgacha maosh olmoqda.

Har bir texnikum o'z hududidagi sanoat korxonalari, agrosanoat majmualari, kichik biznes va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan uzviy hamkorlik qilishi o'ta muhim. Toki dual ta'lim — ya'ni "nazariya + amaliyot" modeli orqali o'quvchi texnikumni bitirgunga qadar ish bilan bog'lanib ulgurсин. U darxonada nazariyani o'rganib, korxonada amaliyot o'tasin. Ana shunda hayotda qiyinalmaydi, ilk qadamini ish bilan boslaydi.

Bu yo'nalishda tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, Xorazm viloyatidagi 36 ta texnikum 889 ta korxona va tashkilot bilan hamkorlikda 1326 o'quvchini dual ta'lim shaklida, ya'ni o'qish va ishlashni uyg'unlashtirgan holda o'qitmoqda. Bu — ta'limni mehnat bozoriga yaqinlashtirish yo'lidagi muhim qadam.

Yoshlar bandligini samarali ta'minlash va bilim olish jarayonini hayotga yaqinlashtirish maqsadida onlayn monitoring tizimini joriy



Qo'ng'iro'tboy SHARIPOV, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

etish hamda Xorazmdagi texnikum va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 7000 ga yaqin o'quvchini dual ta'lim tizimiga qamrab olishni rejalashtirdik. 2025/2026-o'quv yili uchun viloyatdagi texnikumlarga dual ta'lim shaklida qabul qilish parametrlari oshirildi. O'tgan o'quv yilida 1927 o'quvchi qabul qilingan bo'lsa, bu yilgi qabul kvotasi ikki barobar ko'p bo'lib, 4000 taga yetkaziladi.

Shu maqsadda amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyotini qamrab olgan dual ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi, har bir oliy va kasbiy ta'lim muassasasi kamida 3 ta mahalliy ish beruvchi bilan o'zaro manfaatli hamkorlik shartnomalari tuzishi ko'zda tutilgan. Har bir dual dastur doirasida talabalarining amaliy ko'nikmalarini aniq, xolis va shaffof baholaydigan mezonlar joriy etiladi.

Viloyat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishida oliy ma'lumotli, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda Xorazm viloyatida 8 ta oliy ta'lim muassasasi, jumladan, 3 ta nodavlat OTM faoliyat yuritmoqda. Ularda 60 mingdan ortiq talaba tahsil olayotir. 2017-yilda

yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishi 8 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 48,6 foizga yetdi.

Joriy yilda Al-Xorazmiy nomi bilan ataluvchi yangi universitet tashkil etilishi esa viloyatda oliy ta'lim sohasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Bu Xorazmning ilm-fandagi yuksak an'analarni qayta tiklash va dunyo miqyosida tan olinadigan ilmiy markazga aylantirish sari muhim qadam bo'ladi.

Mazkur OTM "Yangi O'zbekiston" universiteti modeli, Massachusetts texnologiya instituti, Myunxen texnika universiteti, Xalifa universiteti kabi yetakchi oliy ta'lim muassasalarining ilg'or tajribasi asosida tashkil etiladi. Qabul jarayoni to'liq shaffof va adolati bo'lishi uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish rejalashtirilgan. Universitetda ta'lim olishni istagan yoshlar A-Level, SAT kabi xalqaro baholash tizimlariga asoslangan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Al-Xorazmiy universitetida muhandislik, aniq fanlar, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot va boshqaruv kabi sohalarida kadrlar tayyorlanadi. Xususan, Xalifa universiteti bilan tuzilgan hamkorlik kelishuvlari doirasida talabalar ikki tomonlama diplom olishi mumkin. Ilmiy tadqiqot va stajirovkalar orqali xalqaro tajribaga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi. Qayta tiklanuvchi energiya, suv resurslarini boshqarish, sun'iy intellekt kabi strategik muhim yo'nalishlarda ilmiy markazlar tashkil etilib, yosh olimlar va talabalarining ijodiy salohiyati ro'yobga chiqariladi.

Oliy ta'lim sohasida miqdordan sifatga o'tish ustuvor vazifadir. Shu bois, OTMlarda o'qitish sifati oshirish, ilmiy muhiti kuchaytirish, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish va ilmiy ishlanmalarini tijoriylashtirishga alohida e'tibor qaratilayapti.

So'nggi yillarda Xorazm viloyati oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushi 25,1 foizdan 33,1 foizgacha oshirildi. Hozir hududdagi OTMlarda 1656 professor-o'qituvchi faoliyat yuritmoqda. Shundan 548 nafari ilmiy darajali



mutaxassislardir. Ular orasida 54 fan doktori (DSc) va 494 fan nomzodi (PhD) mavjud.

Xorazm viloyatida oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot sohasidagi yangilanish hamda rivojlanishlar ilmiy salohiyatning oshishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2022-2024-yillarda oliyog'lar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan loyihalarning moliyalashtirishi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatning yangi bosqichga ko'tarilishi va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

2022-2024-yillarda Xorazm viloyatida 25 ta loyiha moliyalashtirilgan bo'lib, tarkibida ilmiy, startup va tijoriylashtirish loyihalari mavjud. Ular viloyatning ilmiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Ushbu loyihalar doirasida Gurlan innovatsion tumanida 7 ta, Urganch shahrida 4 ta, Urganch tumanida 2 ta yangi innovatsion korxona tashkil etildi va 243 ta yangi ish o'rni ochildi, 18 turg'it innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Natijada mahalliy bozorda 19,9 milliard so'mlik innovatsion mahsulot realizatsiya qilindi.

Endi innovatsion hududga aylantirilayotgan Gurlan va Urganch tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot hamda amaliy tadbirlarni amalga oshirishda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar birlashtirildi.

Xorazm viloyatidagi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar professor-o'qituvchilari hamda doktorantlarni ilmiy tadqiqot ishlariga keng jalb qilish maqsadida hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy va tarmoq muammolari ilmiy yechimiga qaratilgan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar tanlovi e'lon qilinishi rejalashtirilgan. Bunda ilmiy tadqiqot natijalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy va tarmoq muammolari hal etiladi. Shuningdek, viloyatda startup

o'rin tutishi kutilmoqda. Markaz zamonaviy texnologiyalarni transfer qilish, ilmiy va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, fan-ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu esa ilg'or innovatsion g'oyalarni, texnologiyalar va loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Qolaversa, Urganch davlat universiteti va Xitoyning Pekin universiteti hamkorligida Pekin-Urganch markazi tashkil etilmoqda. Bu markaz orqali iqtidorli yoshlarni saralab, ilgama yo'naltirish, matematika fanini xalqaro maydonda targ'ib qilish, yosh matematiklar uchun xalqaro yozgi lagerlar tashkil etish va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritish maqsad qilinmoqda. Ushbu markazning ishga tushishi ko'plab yangi imkoniyatlar eshiklarini ochib, yoshlar uchun yangicha ilmiy va texnologik bilimlar berilishiga zamin yaratadi.

Mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda Xorazm viloyatidagi mahallalarda "Xorijga ish — mahalladan" tamoyili asosida yangi tashabbusni amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu orqali xorijda ishlash istagidagi fuqarolarni o'z mahallasidagi texnikumlar orqali zamonaviy kasblar va xorijiy tillarga o'qitish yo'lga qo'yiladi. Mazkur tashabbus mahallaning o'zidayoq ishga tayyor, malakali va til bilimga ega kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada yoshlarimiz xorij mehnat bozorida erkin va ishonchli raqobat qila oladigan mutaxassislarga aylanadi.

Bugungi globallashuv va raqobat muhitida har bir mamlakat o'z salohiyatini faqat resurslar yoki iqtisodiy kuch bilan emas, balki bilim, ilm-fan va innovatsiyadagi yutuqlari orqali namoyon qilmoqda. Shu ma'noda, milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, uni zamonaviy xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish kelajak taraqqiyotimizning yo'l xaritasidir.

Oliy ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish — dunyo

Tashqi baholash jarayonini xalqaro ekspertlar ishtirokida tashkil etish orqali ta'lim dasturlarimizning ochiq, xolis va sifatlil baholanishiga erishamiz. Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish uchun barcha tashkiliy va ilmiy-uslubiy yangilarni izchil hamda tizimli yo'lga qo'yiladi.

Xususan, 2025-yil davomida Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan oliyog'lardan 229 professor-o'qituvchi va ilmiy xodim tajriba almashish uchun dunyo miqyosidagi nufuzli universitetlar va ilg'or ilmiy markazlarga yuboriladi. Professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlarimiz xalqaro ilmiy markazlar va nufuzli universitetlarda tajriba oshirish imkoniga ega bo'ladi. Ular o'zi bilan birga yangi bilim, yangi ruh, yangi yondashuv va yangi zamonaviy madaniyat olib keladi.

Xorazm viloyatida yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga qiziqishini oshirish, ularni sog'lom turmush tarziga keng jalb etish borasida ham tizimli ishlar qilinmoqda. Bu yo'nalishda oliy va kasbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba va o'quvchilarni omamaviy sport tadbirlariga jalb etish orqali sportga qamrovnini 60 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 35 mingdan ziyod talaba va kasbiy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan 8000 dan ortiq o'quvchi "Barkamol avlod", Universiada, "Talabalar ligasi", "Besh tashabbus olimpiadasi" kabi musobaqalarda faol ishtirok etmoqda. Joriy yil may oyida "Talabalar ligasi" sport musobaqalarining kurash bo'yicha respublika bosqichi aynan Xorazm viloyatida o'tkazildi.

Bugun biz Xorazmda zamonaviy ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi ko'prikn quraypmiz. Bu ko'priklar orqali ertaga minglab yoshlar o'z kelajagi sari yanada dadil harakatlanaadi. Hududda zamonaviy ta'lim muassasalari, innovatsion texnoparklar va yangi ish o'rinlari ochilmoqda. Eng muhimi, bu jarayon markazida inson, ayniqsa, yosh avlod, uning baxti va ertangi hayoti turibdi. Bularning barchasi ta'lim, fan va innovatsiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, har bir yoshga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun yaratilgan imkoniyatlarning amaliy samarasidir.

O'ZLIKNI TOPIB BERUVCHI MAYOQ

9-may — Xotira va qadrlash kuni... Mohiyat e'tiboriga ko'ra, nihoyatda ulug' kun...

Chunki har bir inson xotira bilan tirik, qadr bilan azizdir. Doim shu sana yaqinlashgani sayin ko'nglimdan ko'p iliq xotiralar kecha boshlaydi. Ayniqsa, qalb qo'rini berib, bizga to'g'ri yo'l ko'rsatgan ulug' ustozlar siymosi ko'z o'ngimda gavdalanadi. Mana shunday tuyg'ular tufayli bundan 2 yil oldin Sudyalar oliy kengashi tashabbusi bilan nashr etilgan va juda ko'plab hamkasblarimizda katta taassurot qoldirgan "Matonatli ayol qissasi" kitobini qaytadan o'qib chiqdim.



Yurtimizda inson qadrlari ulug'lash, izzat-hurmatini joyiga qo'yish kabi qadriyatlar ming yillardan buyon bizga yo'ldosh. Ayniqsa, yangi O'zbekiston jamiyatida bu qadriyat amaliy tus oldi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keksalarni, piru badavlat insonlarni ulug'lash, izzatini joyiga qo'yish hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Dinimiz doimo insonlarni bir-biriga yaxshilik qilishga buyuradi. Xususan, go'daklar, ayollar va keksalarga yanada ko'proq e'tibor qaratishga chaqiradi. Keksalar borligi ulkan baxtdir. Ularning duosi tufayli Alloh bizni turli ofatdan saqlaydi. Payg'ambarimiz (s.a.v) bunday deganlar: "Agar oralaringizda muntazil qariyalar, o'tlab yurgan jonzo'tlar va emizikli chaqaloqlar bo'lmaganda edi, boshingizga balalar oqib kelardi".

Keksalar bu hayotning boyigani, tajriba va bilim bilan to'lgan insonlardir. Ularning tajribasidan foydalanish, ko'proq fikr almashish yosh avlodning tafakkur doirasini kengaytiradi. Tarix faqat dunyodan o'tganlarning qilgan ishlari haqida gapirish, yod etishdan iborat emas. Oramizda o'zida katta tarixni jamlagan,

o'tmishi ne-ne kitoblarga jo bo'ladigan yurtdoshlarimiz ham oz emas. Keksalik gashтини surib yonimizda yashayotgan, hayotiy tajribasi va donishmandligi bilan atrofdagilarga kuch-quvvat berayotganlar talaygina. Ularning har bir gapi yoshlar uchun katta ibrat maktabidir.

Shu ezu niyatlarini jamiyatimizga yanada chuqur tatbiq etish maqsadida Sudyalar oliy kengashi bugun sud-huquq tizimining nuroniylk gashтини surib, shogirdlariga tirgak bo'layotgan fidoyilari hayotidan hikoya qiluvchi kitoblarni nashr etib kelmoqda. Bu orqali yoshlarga, sohaning navqiron vakillariga ibrat maktabini yaqqol ko'rsatish maqsad qilingan.

Bugun 95 bahorni qarshilayotgan Umsun Astanovanning hayoti, faoliyati haqiqatan kishilarga o'rnak bo'lgulik. Chunki u umrining asosiy qismini sudyalikdek qiyin, mas'uliyatli va sharafli sohaga bag'ishlagan. Kelajagi yorug' bo'lishini xohlagan, kassida izzat-ikrom topishni o'ylagan har bir inson, har bir sudya uchun Umsun Astanovanning hayoti va faoliyati katta ibrat maktabidir.

Kitob muallifi qahramon hayoti haqida hikoya qilarg ekan, uning boshdan o'tkazgan

azob-uqubatlari, mashaqqatli qismati va alaloqibat mehnati sabab erishgan martabayu rutbasini ishonarli tarzda ifodalab bergan. Aniqrog'i, o'quvchi ko'z oldiga marjondek tizib qo'yg'an.

"Onam bilan 4-5 kilometr uzoqlikda cho'lga chiqib ketib, o'tin yig'ardik. Bir amallab kovul, saksovl, shuvoq topib kelardik. Qornim juda och bo'lgani uchun onam qo'shimlakiga non pishirishga ketsa, uning tezroq qaytib kelishini intizorlik bilan kutardim. Ba'zan eshikning kichkina teshigidan onamning yo'lga ko'z tikib o'tirardim. Onamning qo'lida non bormi-yo'qmi, deb. Sababi, ayrimlar agar o'tin o'zlaridan bo'lsa, o'sha yarim nonni ham bermas edi. Bunday kunlarni hech bandaga ko'rsatmasin...".

Kishi qalбини o'rtaydigan shu kabi hayotiy hikoyalarni kitobning ko'p joyida uchraydi. Bu bilan birovning mashaqqatli o'tmishini ko'z ko'z qilish emas, aksincha shunday holatlardan ibrat olish, undan xulosa chiqarish nazarda tutilgan. Chunki hozir emin-erkinlik, to'qchilik davrida yashayapmiz. Qahatchilikni, yo'qchilikni boshdan o'tkazgan kishilar oramizda qolmadi hisob. Bugunning odami uchun bir burda nonga zor bo'lish yoki o'zi xohlagan kiyimni kiya olmaslik ertakdidek gap.

Ammo to'qlikka — sho'xlik, deganlaridek nafsini jilovlay olmayotganlar, birovlarning

mulkgiga ko'z olaytirayotganlar, ikkilanmasdan korruptsiyaga qo'l urayotganlar ham oramizda topiladi.

Sud tizimida qariyb yarim asr faoliyat yuritgan inson sifatida bunday nokaslarga men "Matonatli ayol qissasi" kitobini o'qib chiqishni tavsiya etgan bo'lardim. Birovlarning oyog'iga bolta urish ilinjinga yurmam, mana shunday ezigulikda undaydigan kitoblarni mutolaa qilish insonni nurli manzillarga yetaklashi shubhasiz.

Bu kabi kitoblar nafsini tiya olmayotgan sudyalarni uchun emdori (profilaktika) vazifasini o'tash maqsadida turkum qilib chop etilyapti. Yuqorida kitoblarning inson ma'naviyatiga ta'siri borasida fikr yuritdik. Bu xayrli yumushlarni qilish katta savob ekan ham haqiqat. Chunki mana shunday kitoblar orqali o'zligini topayotgan, asl o'zanga qaytayotgan insonlar ko'p. Kitob o'qib, hayotni anglayotgan, yaxshilik va yomonlikning farqiga borib, o'zi ham yaxshilar safiga o'tayotganlar bisyor.

Kitob o'qigan inson yomon fikridan qaytdimi, bir yaxshi xislatni o'zlashtirdimi, demak o'sha kitob o'z vazifasini qaysidir ma'noda uddalagan bo'ladi.

Ubaydulla MINGBOYEV,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan yurist

“

Xotin tili

(“So‘z latofati” kitobidan)

Ustoz Abdulla Qahhorning olima va tarjimon, mumtoz she‘riyatning hassos bilimdoni Kibriyo Qahhorova bilan birga kechirgan hayoti, ijodiy hamkorligi o‘zi bir tarix. Bu mehmondo‘st xonadon o‘ziga xos yozuvchilar uyushmasi edi. Ijodkorlar bilan hamisha gavjum bo‘lardi. Ustoz vafotidan keyin ham bu an‘ana davom etdi. Abdulla Qahhor chirog‘i o‘chmadi, bu aziz dargohdan qadamimiz uzilmadi. Qutlug‘ xonadon o‘z egalaridan keyin ham huvillab qolgani yo‘q. Uy-muzey hanuz muxlislar bilan, bu ikki ijodkorni ko‘rgan va ko‘rmagan shogird-u muhiblar bilan to‘la.



Abdulla Qahhor bilan Kibriyo Qahhorovanning turmushi oddiy er-xotinlik munosabatidan yuksakroq edi. Ko‘ngil yaqinligi, ijodiy hamkorlik o‘z yo‘liga. Ikki so‘z ustasining suhbatlari lutfga, tutilmagan gaplarga, go‘zal qochirimlarga boy bo‘lardi. Abdulla akaning tagdor gaplariga Kibriyo opaning nazokatli javoblari bizga ham zavqli, ham ibratli edi.

Kibriyo Qahhorova esdaliklaridan:
“Turmush deganning achchig‘i ham, chuchugi ham bo‘ladi. Erim umrida meni urishmagan, qattiq so‘zlamagan, deguvchi xotinlar bekoming beshtasini aytibdilar. Sizlar Abdulla akangiz bilan shirin suhbatlarimizni ko‘rgansiz, xolos. Qahhorning qahrini siz bilmaysiz. Men bilganman. Eshtadiganimni eshitganman. Lekin Abdulla akangiz jahli chiqqanda ham so‘zni tobiga keltirib, chiyratma qilib aytardi. Uyda tojikcha gaplashardik. Men o‘zim tojik bo‘lganim uchun, Abdulla akangiz qo‘qonda o‘rgangan tojikchasini esdan chiqarmaslik uchun. Kunlardan bir kun men, xotin kishi emasmanmi, izzatalab bo‘lib, ginaxonlik qilibman. U kishining javobi qulog‘imdan ketmaydi: — Yana nima qilay? Hamma xotinini sen deganda men siz desam, **ona tilimni qo‘yib xotin tilida gapirsam**, bundan ortiq izzat qayda bor?.. Shu gapdan keyin men qaytib istig‘no qilmaydigan bo‘ldim”.

Ustoz Qahhorning xotin tili degan o‘tkir iborasi meni ko‘p xayolga toldirdi. Shu ibora bilan bog‘liq hodisalar, rivoyatlar, she‘riy satrlar yodimga keldi. Xayolim dunyoni kezib chiqdi. **Xotin tili.** Ulug‘ adib bu lutf bilan ona tili degan so‘zning aziz va mo‘tabarligini ham, ayolga ehtiromning yuksak maqomini ham go‘zal ifoda qilgan. Gap faqat tojik tili ustida emas, ko‘ngil ustida, erkak va ayolning bir-birini anglashi ustida bormoqda. Bu oson ish emas. Xotin tilini anglash turmushning eng og‘ir va murakkab muammasi, tiriklikning mangu yechilmas jumbog‘idir. Xoliqil olam ayolning jinsi va jisminiga emas, tafakkur tarzini ham boshqacha yaratgan ekan.

Eshitganim bor, dunyoning qadam yetmas uzoq orollarda yashovchi bir qabilaning erkaklari boshqa, xotinlari boshqa tilda gaplashar, bir-birlarini tushunmas ekanlar. Erkakning xotin tilida, ayolning erkak tilida gapirishi uyat hisoblanar ekan. O‘zaro munosabat faqat imo-ishora orqali ekan. Buni eshitib avval hayron bo‘lgandim. Madaniyatdan uzoq ibtidoiy qabila-da, degandim. Keyinroq o‘ylasam, dunyo tamadduni yetib bormagan o‘sha qadam yetmas yerning xalqi donishmand odamlar ekan. Erkak va ayol o‘rtasida o‘tli nigoh, sirli imo, dillar talpinishidan boshqa yana qanaqa gap-so‘z bo‘lishi mumkin? Tillaning gaplashganidan yuraklarning tillashgani ming bora a‘lo emasmi?

Er-xotin o‘rtasida mehr — ko‘z orqali, mojaro — so‘z orqali bo‘lar ekan. Sevishganlarda gap kam, termulish ko‘p bo‘ladi. Turmush qurgach, gaplashib oladigan masalalar chiqadi. Ko‘rgiliklar shunday boshlanadi. Boshimizga ne balo kelsa, tildan keladi.

O‘sha ibtidoiy qabilaga havas qildim. Qadim zamonlarda bizda ham shunday donishmandlik bor edi. Xotin bilan gaplashib o‘tirgan er kishini **xotinchalish** deyilardi. Er xotinning, xotin eming otini aytib chaqimagan. Chorlaganda farzand nomi, zarur gap bo‘lsa, farzand tili vosita bo‘lgan. Ayol ko‘zidagi hayo, er ko‘nglidagi mehru shafqat barcha muhokamaning o‘mini bosgan. Biz shunday munosabatga guvoh bo‘lgan, “qoloq”lardan qolgan avlodmiz. Er-xotin o‘rtasida tilsiz muomalani olis orollardan qidirish shart emas, o‘zimizning chekka qishloqlarda hali hamon yo‘qolib ketmagan.

O‘zbek tilida erkaklar tilga olmaydigan, faqat ayollarga xos so‘zlar bor. Bular asosan, noz-u karashma, erkalik bilan bog‘liq so‘zlar. Faqat ayollarga xos qarg‘ishlar ham borki, yig‘sa, kitob bo‘ladi.

XIX asrda yashagan ma‘rifatparvar shoira Osima Xonim erdan zorlangan xotin tilidan shunday so‘zlarni she‘rga solgan:

*Ilohi, darbadar yurgan vatansiz jonni yer yutsun,
Hamisha uyda yotgan behunar hayvonni yer yutsun.*

*Jahon-u osmon-u jumla mofihoni fahm etmas,
O‘lukmas yo tirikmas bismili nimjonni yer yutsun.*

*Yemak-ichmak, falon qilmoq, jahonni kori shuldir deb
Sharobi g‘aflat ichgan bexabar nodonni yer yutsun.*

*Xotinlar so‘zi bo‘lsa garchi ma‘nan beg‘ubor oltun,
Quloq solmas jamodi mahzdek qotg‘onni yer yutsun.*

*Nadomatdur biza o‘lguncha nodon erlara ketmak,
Bizi hayvon kabi bog‘lab semirtirg‘onni yer yutsun.*



*O‘quv bilmas, yozuv bilmas, yana dunyoni fahm etmas,
Bu ahmaqdin tug‘ulg‘on baxtsiz o‘g‘lonni yer yutsun.*

*Uzun to‘n, katta salla, kirmagan hammoma umrida,
Sasib bitgan qaro ko‘ylak bila ishtonni yer yutsun...*

*Giriflori havoi nafs o‘lub shaytonga aldangan,
Boqlmay qarzga botub, uch xotun olg‘onni yer yutsun.*

*Qilib dori-yu darmon, bel bukulan chog‘da aysh istar,
Halokatlarni tavlid aylagan darmonni yer yutsun...*

*G‘aroyibdur jahonning kori sartosar nazar solsang,
Yamon er birla ko‘rgan rohati davronni yer yutsun.*

Kichkina lug‘at: **Mofih**o — dunyoda bor narsalar. **Jamodi mahz** — bu o‘rinda quruq kesak ma‘nosida. **Tavlid** — tug‘dirish, dunyoga keltirish. **Yer yutsin** degan so‘zni faqat ayol aytishi mumkin, faqat qizu juvonlarga yarashadi. Xotin tilining hatto qarg‘ishida ham nazokat bor. Nozu karashmali so‘zlarini aytmayoq qo‘yay. Boshqa hech bir tilda bo‘lmagan totli, jozibali kalimalarni eshitish bizlarga nasib qilgan. Ayniqsa, Xorazm qizlarining ishvali so‘zlari hech bir ta‘rifga sig‘mas. **Jonim siza**, der-u jon olar, o‘ldiradi **o‘lmagaysiz**, deb. Oltmishinchi yillarning bir devona yosh shoiri aytgan ekan:

*Tinglayman ko‘p o‘zbek so‘zlarin,
Xorazmcha talaffuzini.
Xush ko‘raman u yer qizlarin
Qo‘ysangiz-a, degan so‘zini.*

*Ular buni aytsa muloyim
Tillaridan shakar to‘kilar.
Xorazmlik qizlarni doim
Qo‘ysangiz-a, degizgim kelar.*

O‘sha havaskor shoir ulg‘ayib, yoshi bir joyga borganda ham dilidagi zavqini yo‘qotmabdi, zamona yigitlariga nasihat qilib, ularning qulog‘iga bir so‘z aytgan ekan:

*Qiz bolaning rost gapi ozdir,
Yolg‘onlari bisyor, adashma.
“Tegmang menga” — degani nozdir,
“Nari turing”, — desa, karashma.*

*Ishva bilan: “Qurib keting”, — der,
Ko‘ngilga hech qattiq olmagin.
“O‘ling”, — desa, yashnab yuraber,
“Qoching”, — desa, qochib qolmagin.*

*Hech gul bormi axir tikansiz?
Tikaniga fido qilgin jon
Bir kun aytar: “Yomon ekansiz”,
Ma‘nosi — siz eng yaxshi inson!*

Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston xalq shoiri



Ibratli umr saboqlari

“Otarlar so‘zi — aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvi kirib bormagan o‘zbek xonadoni bo‘lmasa kerak. Zero, o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab efirga chiqqan ayni ko‘rsatuvning har sonini millionlab yurtdoshlarimiz intiqib kutgani rost. Gastrol safari chog‘i ko‘rsatuv Samarqandda namoyish qilinganida 700 kishi sig‘adigan teatr binosiga mingga yaqin odam o‘zini urgani bois, bino eshigi singan ekan. Tashqarida qolgan 500 tomoshabinga ko‘rsatuvning qaytadan qo‘yilgani ham so‘zimiz isboti.

TAQDIRIGA “O‘ZBEKNING ONASI” BO‘LISH BAXTI BITILGAN AYOL

Maqolani bejiz mazkur ko‘rsatuvni e‘tirof etishdan boshlamadik. Zero, bugun porloq xotirasini esga olajak qahramonimizni elga tanitishda uning o‘mi benihoya katta. Nima uchun bu ko‘rsatuvni xalqimiz shu qadar sevib tomosha qiladi? Nega u uzoq yillar ekrandan tushmaydi, degan savollarga javob izlar ekanmiz, ko‘z oldimizda, avvalo, nuroniy boshlovchilaru Manzura aya Hamidova siymosi gavdalanadi. Ko‘pincha xokisor, mushfiq onalar siymosini yaratgan san‘atkor hamon muxlislari yuragida yashayotir.

1969-yilda O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan aktrisa suratiga boqqan katta avlod vakillari chehrasida tabassum bilan “E, aya-ku!”, deydi. Bu ayaning o‘zbek ayoligagina xos go‘zal fazilatlari ijro bilan birga to‘g‘ridan to‘g‘ri qalblarga kirib borgan. Birgina “Zarang kosa”ni eslang. Telenovellani ko‘rib, qazoi qadari yaqinlashib qolgan onaxon — Manzura Hamidova uchun yig‘lamagan inson bormikan? Hatto yomon kelin — Qumri rolini qoyilmaqom o‘ynagan shogirdi Hakima Otaxonova Manzura opadek halim ayol qarshisida salbiy qiyofaga kirish juda qiyin kechganini ko‘zda yosh bilan esladi:

— Manzura ayam qo‘limdan yetaklab ko‘rsatuvga olib borgan ustozim edi-da, axir. Mirabbos akaga “Bu qizimiz teatrda yaxshi-yaxshi rollarni ijro etyapti. Siz ham bir sinab ko‘ring” deb tayinlaganida onamdek mehribonligini his qilganman. Aya sababli shu ko‘rsatuvda 50 dan ortiq rol ijro etdim. Repetitsiyaga kamida 20 minut avval yetaklar edi. Nega buncha vaqtli boramiz, desam, “Ko‘chadan keliboq sahnaga chiqib ketmaysan-ku, rolingi to‘lingga olib, tayyorlanib turishing kerak-da”, derdi. “Zarang kosa”da o‘g‘linga rivoyat aytib beradigan joyida ustozimning ijrosiga tamomila mahliyo bo‘lib qolib, rejissyorning “Endi kelining so‘zlarini yozamiz”, deganini eshitmabman. Ko‘zimda yosh. Chunki shu yerda “Yana nima balolarni aytib bolaning miyasini zaratlayapsiz? Necha marta gapirish kerak o‘zi sizga”, deb baqirishim kerak edi. Qarib qitillab qolgan qaynonam Manzura opa esa yig‘lagudek bo‘lib, “Namuncha meni yerga uraverasiz-a, axir siz ham bir kun menga o‘xshab qarisiz”, deydi. Shu joyida ko‘nglim bo‘shab ketishi, qattiq gaplarni qanday aytishimni o‘ylab qolgan bo‘lsam kerak-da. Haqiqatan, jabrdiyda ona bo‘lib olardiki, o‘z-o‘zidan ko‘zingizga yosh kelardi. Bir payt Manzura opa seza nima bo‘lyapti, degandek qaraganida, men bunaqa rol o‘ynamayman, sizni yaxshi ko‘raman, desam koyib berdi. “Agar meni ustozim desang, darrov o‘zingni qo‘lga



ol. Bu rol-ku! Qani, yuzingni yuv. O‘zingning holatingga ki”, dedi. Yarim soatlarda zo‘rg‘a qahramonim holatiga qayta olgandam.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Otarlar so‘zi — aqlning ko‘zi” ko‘rsatuvi rejissyori, boshlovchisi Mirabbos Mirzaahmedov tomoshabin hammani ham Manzura opadek sevavermasligidan gap ochdi. Buning uchun tug‘ma qobiliyat, fidoyilik, kasbga sadoqat talab qilindi, dedi. Boshlovchi hamma san‘atkorlar, ayniqsa, yoshi ulug‘larining Manzura opa o‘ynagandek rollar bilan xalqning ko‘ngligdan joy olishini istaydi.

Shu yigirma obrazi Manzura Hamidovanning barcha rollariga burchi baho berish uchun kifoya qiladi. Mushtipar o‘zbek onalari timsolini yarata olgan Lutfixonim Sarimsoqovadan keyin “o‘zbekning ayasi” bo‘lish qahramonimizga nasib etdi. Zero, aktrisa ham Lutfi aya kabi rolini shunchaki o‘ynamas, balki yashar edi. Qahramonimiz bilan qariyb 40 yil birga yashagan kelini Gulsara Dehqonova qaynonasining uyda ham obrazlar ta‘siridan anchagacha chiqa olmaganini aytadi.

— “Zarang kosa”dan so‘ng ba‘zi qo‘shni bolalar ayaga rahmi kelib idishlar olib chiqqan edi, — deydi Gulsara Dehqonova. — Ayamiz esa ularga “Mening hamma narsam to‘kis, shunaqa rollarni o‘ynayveraman-da, bolalarim”, derdi.

“1969-yilda O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan aktrisa suratiga boqqan katta avlod vakillari chehrasida tabassum bilan “E, aya-ku!”, deydi. Bu ayaning o‘zbek ayoligagina xos go‘zal fazilatlari ijro bilan birga to‘g‘ridan to‘g‘ri qalblarga kirib borgan. Birgina “Zarang kosa”ni eslang. Telenovellani ko‘rib, qazoi qadari yaqinlashib qolgan onaxon — Manzura Hamidova uchun yig‘lamagan inson bormikan?

Ha, Manzura opa besh farzandi bilan o‘ziga to‘q hayot kechirgan. Turmush o‘rtog‘i O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, tanburchi Jo‘rabek Saidaliyev ayani tushunib, qo‘llab turgani esa katta kuch, ilhom bergan. Shuning uchunmi, katta o‘g‘li farzandli bo‘lgach, kelining teatrda ishlashiga ko‘mmaganida Manzura aya siqilib qolgan, o‘ylanib yurgan. Nihoyat, “Bu ham umid bilan oliyoghni tamomlagan, bolam”, degan yumshoq gaplar bilan o‘g‘lini ko‘ndirgan. So‘ng aya kelinini teatrga olib keladi. Bu ayaning hayotda ham xuddi ekrandagidek mehribon qaynona ekanining birgina ko‘rinishi edi.

— Oyimning qo‘llari bilan teatrda uzoq yillar rejissyor yordamchisi, truppa rahbari sifatida ishladim, — deydi Gulsara opa.

O‘zi ham 20 yoshida Toshkentdagi ishchi yoshlar teatrida faoliyat boshlagan. So‘ng bir muddat Muqimiy teatrida, 1943-yildan umrining so‘nggiga qadar Respublika yosh tomoshabinlar teatrida ijod qildi. Qovoq xola, o‘gay ona, Gilsoy, ona bug‘u, Mehri xola kabi qahramonlari uning serqirra ijodkor ekanini yaqqol ko‘rsatdi. O‘zigagina



Sahnada qobiliyatli aktrisa, yoshlarga jonfido ustoz, uyda sadoqatli yor, mehribon ona edi. Bunday insonlar 100 yilda bir marta dunyoga keladi.

“Qovoqvoy va chanoqvoy” spektaklidagi Qovoqvoy — O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdusamat Jo‘rayev o‘sha davrlarni bunday esladi:

— Teatrga 1975-yilda kelganman. Manzura opani birinchi ko‘rganimda joyimda turgancha qotib qolganman. “Ha, nega to‘xtab qolding?”, deganida, “Zo‘r aktrisasiz, sizni televizorda ko‘p ko‘rganman. Siz bilan rol o‘ynash men uchun baxt”, degandim. Umrining oxirigacha erkatoy o‘g‘il rolini o‘ynadim. O‘zi zo‘rg‘a yursa ham sahnadan tushmay, rollarini, ayniqsa, Qovoq xolani mahorat bilan o‘ynagan fidoyi ustozim bilan faxrlanaman.

“Dunyoning ishlari” videofilmda ayaning o‘g‘li rolini ijro etgan Saidkomil Umarov ham, Manzura opa bilan ko‘plab turfa obrazlarni yaratgan Erkin Komilov ham bunday muvaffaqiyatga erishganlari uchun shukrona aytadi. Chunki Manzura Hamidova uncha-buncha partnyor bilan chiqishib ketavermasdi. O‘ziga nisbatan qanday talabchan bo‘lsa, boshqalarga ham shunday edi. Erkin aka bilan suhbatlarimizning birida aya haqida aytgan iliq gaplarini ko‘p eslayman: “Manzura Hamidova o‘sha paytlarda ham, hozir ham O‘zbekistonimizning onasi. Yoki hozir Manzura Hamidova bormi? Yo‘q, u ona siymosini o‘zi bilan birga olib ketdi. Uning taqdiriga “O‘zbek onasi” degan tamg‘a bosilgandek go‘yo. Bu onaning mehri, ayollik sadoqati, ibosi, ayniqsa, ishga munosabati, halolligi barchaga namuna edi. Avvalo, uyida haqiqiy o‘zbek oilasiga xos muhit yaratgan ayol. Farzandlari, hatto kelinlarni ham o‘zidek tarbiya qilgan. Biror marta kelinlar bilan nari-beri bo‘lganini eshitmaganmiz. Aya bilan ko‘p rollar o‘ynaganman. Ko‘zlariga qaraganimda, ona farzandga nima deyishi mumkinligini sezardim.

Chindan ham Manzura aya ijro etgan rollar har qanday befarq tomoshabin e‘tiborini loaqal bir muddat o‘ziga tortar, onasini eslashga majbur etardi. Arzimas paypoq olib kelgan o‘g‘lini osmonga ko‘tarib alqagan ona yozuvchining tasavvuridan-da mukammal ijroga erisha olgan. Ko‘z oldingizga keldimi? “Ha, umriginangdan baraka toppur. Oyjonimning oyog‘i og‘riydi, degan-da. Hoy, kelinposhhalar, buni qaranglar, o‘g‘lim menga gilam paypoq olib kelibdi. Keksalikda kuz tushdi, deguncha oyog‘imga og‘riq kiradi. Bolaginam onamning oyog‘i issiqqina yursin, degan-da. Huv, onaginang o‘rgilib ketsin sendan”, deganida Manzura opaning ko‘zidagi quvonchdan butun dunyo quvongandek bo‘ladi. Kim biladi, mana shu sahnadan so‘ng qancha-qancha o‘g‘illar onasiga issiq paypoqdan tortib, shoyi ro‘molgacha ko‘tarib kelgan, qancha-qancha kelinlarning ko‘ngli yumshab, qaynonasi g‘animat ekanini, keksalar duosini ko‘proq olish kerakligini tushunib yetgan. Shu ma‘noda, bugun ham mana shunday qahramonlar kerak bizga.

To‘g‘ri, qahramonimiz faqatgina ona obrazlari bilan cheklanmagan. Musiqali spektakllarda ham turfa rollarni maromiga yetkazib ijro etgan. Biroq qancha avvalida aytmaganimizdek, Manzura opa maqolamda qaytadan aytgansimda ko‘ngillardan joy oldi. Minglab bolajonlarning mehribon buvisi sifatida qadrlandi, e‘zoz topdi. Yurakdan mehnat qilganing, albatta, rohat ko‘rishi uning hayotida o‘z isbotini topdi. 1997-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlandi. Shu bilan birga, aktrisa xalqning mehriday yuksak tolega ega bo‘ldi. Aktrisa 1998-yilda o‘zi tug‘ilgan Toshkenti azimda vafot etdi. Butun o‘zbek eli onasidan ayrilganday bo‘ldi. San‘atkordan qolgan ulkan ma‘naviy meros esa uning biz bilan ma‘nan birga yashashiga xizmat qilmoqda.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri